



Imom Buxoriy aqidaviy qarashlarining ijtimoiy-madaniy va aksiologik xususiyatlari

To‘xtayeva Matluba Xakim qizi

UMFT “Gumanitar fanlar” kafedrası mudiri

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent v.b

Telefon: +99890 813-13-23

E-mail: Matlubatuhtaeva9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Buxoriyning hadisshunoslik ilmida tutgan o‘rni, uning diniy, axloqiy va huquqiy ta‘limotiga yangicha nazar bilan qarash hozirgi kunda g‘oyat dolzarb bo‘lib, ma‘lum ma‘noda, amaliy ahamiyatga ham ega. Turli millatlarning o‘ziga xos tarixiy merosi, urf-odati, marosimlari, san‘ati, madaniy munosabatlari, axloqiy fazilatlari ma‘naviy qadriyatlar jihatdan tuzilishi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Qur‘on, Imom Termiziy, Hanafiya mazhabi tarixi, ray, qiyos, Markaziyo Osiyo muhaddislari, Sahihi Buxoriy, Sahihi Muslim, Sunani Abu Dovud, Jome‘i Termiziy, Majtaboi Nasoiy, Sunani Ibn Moja.

Hadis islom aqidaviy tizimning mustahkam qismi bo‘lib, u islom shariatining Qur‘ondan keyingi bosqichida islom ulamolari, ahlul ray mantiqiy metodi orqali ob‘ektiv va amaliy jihatdan inson hayoti uchun foydali bo‘lib shakllandi. Muhammad Payg‘ambarning so‘zlarini ob‘ektiv yetkazilishining ta‘minlanishi falsafiy-mantiqiy tizimni talab qildi va ushbu tizim ishlab chiqildi. Sunna islom shariatining mustahkam aqidasi sifatida turli millatlarni islomga e‘tiqod qilishini huquqiy, ijtimoiy jihatdan kuchaytirgan holda, islomgacha bo‘lgan etnik-milliy urf-odat va marosimlarni ham maksimal tarzda legitimlashtirish, shu yo‘l bilan milliy hamda diniy qadriyatlarni sinkretlashtirishga asos bo‘ldi. Hadislarni X asrdan jamlash boshlangan bo‘lsa, minglab muhaddislar hadisshunoslik ilmini takomillashtirishda o‘z uslubini yaratishga harakat qilishdi. Markaziyo Osiyo



hadisshunoslari Vatanimiz zaminidan chiqqanini ta'kidlagan holda, nafaqat Imom Buxoriy yoki Imom Termiziy balki, boshqa ko'plab olimlar ham islom manbalarini yoyishda o'z yondashuvlariga ega bo'lganligi, mantiqiy uslublarni dasturulamal qilib olganligini tarixiy manbalardan ko'rish mumkin. Ularda:

birinchidan, ulamolarning mulohazalarida mantiqiy qiyosiy tafakkur usuli yetakchilik qilgan eng kuchli mantiqiy bog'lanish Muhammad Payg'ambar shaxsigacha hadislar bilan mustahkamlanadi;

ikkinchidan, ular hadis zanjirining amaliyot bilan parallel aloqasiga e'tibor berganlar. Bu usulning egallanishi xanafiy mazhabida hadislarining sahih qismlarida yuqori aniqlik, xolislik va chuqur mushohadaviy yondashuvni ta'minlagan. Abu Xanifa o'z davrida o'sha yurtning milliy qadriyatlariga alohida yo'l ochib bergan yirik tarixiy shaxs hisoblanadi. Chunki, Abu Xanifa targ'ibotida islom va uning ratsional yo'nalishining uslub jihatdan birligi, bu hududda islom dini manbalariga bo'lgan yondashuvda ilmiy, hadisshunoslik tizimini milliy va diniy qadriyatlarning aksiologik uslublar bilan bog'lanishi o'ziga xos tamoyil sifatida shakllantirdi.

Hanafiya eng asosiy an'analardan biri mo'tadil islom ta'limotini mustahkamlash hisoblanadi. Hanafiya va mo'tadil islomni tahlil qilishda islom dini aqidaviy manbalaridan bir bo'lgani bilan, uning hududlarda sotsiallasuv xususiyatlari ma'lum farqlarga ega ekanligiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Islom dinini turli hududlardagi ta'sirini kuchaytirishda Hanafiya mazhabining ratsional-mantiqiy uslubi ta'sirini ko'ramiz. Hanafiya mazhabi tarixi va uning fiqhiy yo'liga nazar tashlasak, bu mazhab, eng avvalo, sotsial muammolarni islom dini me'yorlari asosida tushunishda ray usulidan borgan. Bu usul "Islomning birinchi asrlarida, musulmon aqidasi va huquqi hali rivojlanish bosqichida bo'lganida, Hanafiya qolgan uchta mazhabga qaraganda ancha ilg'or bo'lib chiqdi, chunki ustozlari Abu Hanifadan o'rnak olib, ular ko'proq Qur'on va sunnaning harflariga emas, ruhiga rioya qilishga moyil edilar. Bu ruhni "hukm" (ray) va "qiyos" (qiyos) bilan



aniqladilar. Shuning uchun Hanafiya "as'hab ar-ray" va "ahl al-qiyas" ya'ni mustaqil fikr tarafdorlari yoki qiyos ahli nomi bilan ham tanilgan"¹.

Ray – as'hobul ray – mustaqil fikr tarafdorlari bo'lib, ularning mulohazalarida mantiqiy qiyosiy tafakkur usuli yetakchilik qilgan. Bu usullar egallanishi hanafiy mazhabida hadislarning sahii qismlarida yuqori aniqlik, xolislik va chuqur mushohadaviy yondashuvni ta'minlagan. Markaziy Osiyoda Hanafiya maktabining keyingi shakllanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatgani yoritiladi va Imom Buxoriy hanafiylik mazhabi asosiga kengroq yondoshuv orqali hadislarni isnoddan foriq qilishga kirishadi. Abu Hanifa o'z davrida oqilona olib borgan targ'ibotida uning g'oyalari yanada rivojlanib, insonni faqat iymon-e'tiqodga solib, uning ongini, shuurini turli ta'limotlarga asoslangan holatda islom va uning ta'limotini hadislar bilan yoygan bo'lsada, Hanafiyaning sotsial hayotni islom aqidaviy manbalari bilan uyg'unlashtirishda urf-odat va istihson usullarini islomga olib kirishi islom kirib kelgan davlatlarda milliy an'analar bilan dinni bog'lashga imkon berdi. Imom Buxoriy va ko'plab Markaziyo Osiyo muhaddislari tomonidan uning ta'limotiga tayangan holda odilona an'analarga asoslanib, hadislarni jamlashga kirishilgan. Imom Buxoriy ratsional, huquqiy, milliy qadriyatlar asosidagi an'analarni, xalqlar va millatlar hayotini diniy aqidaviy manbalarning ilohiy mazmunda nazarda tutilgan yo'l bilan bog'ladi. Unga inson faktori aralashuvining oldini oluvchi metodlarni ishlab chiqdi.

Imom Buxoriy hadislarning sanad turlarini yanada takomillashtirdi o'n ikki shart asosida hadisning sahiihlik sharti sanadining metodologik uslubini tatbiq etdi. Islomda hadisning diniy qonun va axloqiy hidoyat manbasi sifatidagi nufuzi Qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinda turishi va Sahihul Buxoriyning asari orqali yoyilishi ham keng e'tirof etilgan. Qur'oni karimda huquqga oid oyatlarning soni nisbatan kam bo'lsa-da, hadislarda quyidagi amallar ta'kidlanadi. Misol uchun, g'usl, tahorat, salomlashishning to'g'ri shakllari va bandalar uchun yaxshilikning ahamiyati barcha masalalarda diniy farzlarning

¹ Фанден-Берг Основные начала мусульманского права. СПб., 1882. 10 С.



tafsilotlariga yo'naltiradi. Shuningdek, shariat qoidalarining «ko'pchiligi» Qur'ondan ko'ra Imom Buxoriy hadislaridan olinadi. Hadislarni tekshirish Islomda muhim tadqiqot sohasiga aylandi, chunki ba'zi hadislarda shubhali va qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Odatda, hadis ikki qismdan iborat: isnod zanjiri va rivoyatning asosiy matni. Hadislar musulmon ulamolari va huquqshunoslari tomonidan sahih («haqiqiy»), hasan («yaxshi») yoki «zaif» deb tasniflanadi. Biroq, bu tasnif sub'ektivdir, turli diniy guruhlar yoki olimlar hadisni turlicha tasniflashlari mumkin. «Hadis» - Muhammad Payg'ambar yoki uning ta'limotlaridan olingan og'zaki nutq, «sunnat» (turmush tarzi, xulq-atvori yoki namunasi) ma'lum bir jamoa yoki xalqning urf-odatlariga ishora qiladi. Sunnat jamoa tomonidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'ana bo'lsa-da, hadislar jamlangan rivoyatlar bo'lib, ko'pincha o'z manbasidan asr o'lchovida uzoqda bo'ladi. Hadisda mavjud bo'lgan amalni sunnat deb hisoblash mumkin, lekin uni tasdiqlovchi qo'llab-quvvatlovchi hadisga ega bo'lish sunnatda shart emas. Hadislar mazmuni Qur'on oyatlaridan «ming marta kattaroq» bo'lgan islom e'tiqodlarining «o'zagi»ni o'rab turgan qatlamlar sifatida tasvirlangan. Mashhur, keng qabul qilingan hadislar ichki qatlamni tashkil qiladi hadis tashqi tomonga kengayib borgani sari ishonchli va qabul qilinadigan bo'lib qoladi. Hadis Muhammad Payg'ambarga tegishli bo'lgan ma'lumot bo'lib, uning so'zlari, hatti-harakatlari, tasdiq va sifatlarini o'z ichiga oladi. Hadis ulamolari ham sahobalar va tobeinlarning so'z va amallarini qo'shganlar. Lekin ular manba bo'lishi jihatidan payg'ambar so'zlari bilan bir darajada emas, hadis ilmida turlicha nomlanadi. Islomda bu Muhammad Payg'ambarning so'zi, harakati yoki roziligi haqidagi rivoyat yoki xabar, bir harakat oldida jim bo'lib, roviylar zanjiri orqali uzatiladi. Har bir xabar Muhammad Payg'ambar haqida ma'lumotdir. Bu ma'lumotlar to'planganda sunnat deb ataladigan kattaroq tizim yaratiladi.

Imom Buxoriy va boshqa hadis imomlari Muhammad Payg'ambar vafotlaridan qariyb ikki asr o'tib, shu paytgacha rivoyatlar orqali yetkazilgan «og'zaki madaniyat mahsulotlari»ni to'plab, yozib, hadislar jamlanmasini tashkil qilganlar. Sunniy mazhabi



orasida ishonchli va mashhur bo'lgan oltita hadis to'plami mavjud. Ya'ni, olti muhaddis ittifoq qilgan sahih hadislar («Kutubis sitta» olti to'plam):

1. «Sahihi Buxoriy».
2. «Sahihi Muslim».
3. «Sunani Abu Dovud».
4. «Jome'i Termiziy».
5. «Majtaboi Nasoiy».
6. «Sunani Ibn Moja».²

Imom Buxoriy va Imom Muslimning kitoblari ham sahih deb ataladi, bu kitoblarda keng tarqalgan hadislariga muttafaqun alayh³ deyiladi. Sunniy ulamolar Oisha (r.a.) kabi roviylarga tayanadilar, shialar ularni rad etadilar. Hadislar to'plamidagi farqlar ibodat amaliyotlari va shariat qonunlaridagi farqlarga yordam berdi, ikki an'ana o'rtasidagi ajratuvchi chiziqni qat'iylashtirdi. Sunniy an'analarda bunday matnlar soni yetti mingdan o'n uch mingtagacha bo'ladi, biroq hadislar soni ko'proq, chunki bir xil matnga ega bo'lgan ko'plab isnodlar alohida hadislar hisoblanadi. Aytaylik, o'nta sahoba Muhammad Payg'ambarning hayotidagi bir voqeani tasvirlaydigan matnni yozib olsa, muhaddislar buni o'nta hadis deb hisoblashlari mumkin. Masalan, Ahmad Bin Hanbalning «Musnadi» asarida 30 000 dan ortiq hadislar mavjud, ammo bu raqam matn ichidagi yoki rivoyat zanjirlaridagi kichik farqlarni qayd etish uchun takrorlangan matnlarni o'z ichiga oladi. Matnning eng kuchli rivoyatini ham, uning rivoyatlarida eng ishonchli roviylarni aniqlash uchun ham bir xil matnlar rivoyatlarini solishtirish muhaddislarni to'liq band qilgan. Imom Buxoriy va Imom Muslim faqat eng sahih hadislarini to'plaganliklarini aytganlar. Ularning da'volarini

² Dr.Avvod Xalaf Olti muhaddis ittifoq qilgan sahih hadislar: diniy ma'rifiy / Tarjimon Anvar Ahmad – Toshkent: Munir, 2021. – B. 3.

³ Muhammad Fuod Abdulboqiy Marvarid marjonlari. Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan muttafaqun alayh hadislar// Arab tilidan Ziyouddin Mansur tarjimasi – Toshkent: Sharq, 2022. – B. 608.



keyingi olimlar ham qabul qilib, bugungi kunda ular eng ishonchli hadis to'plamlari sanaladi.

Hadislarning turlicha talqin qilinishi hamda Qur'onning turli tafsirlari, qaysi hadislar manba sifatida qabul qilinishi, qaysilari turli fiqh mazhablarining paydo bo'lishiga olib kelmasligi haqidagi masalalar bilan bog'liq. Shia, alaviy va sunniylarning tushunchalari har xil bo'lgani uchun Bag'doddagi sunniy mazhab (hanafiy mazhabi) va boshqa mazhablarning (ahl-i hadis, rivoyatlar) yondashuvlari ham turlicha bo'lgan. VII asrda aql va ahl-hadisga urg'u bergan ilohiyot olimlari o'rtasida ixtiloflar kelib, hadislar so'roq qilina boshladi. Bir-biriga zid bo'lgan aql va naql o'rtasida qaysi birini afzal ko'rish kerakligi haqidagi munozaralar islom geografiyasida yaqin davrlargacha davom etgan.

«Sunnii islom» tushunchasida hadis Qur'on karimning ikkinchi darajali izohli manbasi sifatida qaraladi. U islomiy e'tiqod, ibodat, tafsir, fiqh, tasavvuf va mazhab kabi shariat qoidalarida bo'lgani kabi qonun chiqaruvchi sifatida ko'riladi. Shuningdek, bu barcha asoslar islom aqidalarini bilan sotsial voqe'likni fiqh va urf-odat, huquq, iqtisodiyot amaliy soha bilan bog'laydi. Bu tushunchada ba'zi hadislar zaif yoki uydirma bo'lishi mumkin, deb ishoniladi, ammo hadis imomlari bu so'zlarni saralaydilar, amaliyotga to'g'ri keladiganlarini aqida va urf tarozusida belgilaydilar. Rivoyat qilingan tendensiyalarning yana bir xususiyati hadislarning mashhurligini oshirish maqsadida hadis imomlariga g'ayritabiiy sifatlar bilan nisbat berishdir. Bu rivoyatlarga ko'ra, hadis imomlari roviylar zanjiri bilan birga millionlab hadislarni xotiralarida saqlashlari lozim. Imom Buxoriy hadisni manbasidan olish uchun oylarcha yo'l yuradi, roviyni topadi, lekin roviy otini bo'sh qo'li bilan aldab, otxonaga olib borgani uchun undan hadis olishdan voz kechadi.

Sahihi Buxoriy va Sahihi Muslim asarlarida o'z mezonlariga ko'ra sahih hadislarni to'plaganlariga e'tibor qaratishadi. Masalan, uning shogirdi Imom Muslim Imom Buxoriy ishonchli deb atagan 420 ta toq roviyning hadislarini kiritmagan. Yana uning ustozlari Imom Buxoriy Imom Muslim ishonchli deb atagan 600 ga yaqin roviylar hadislariga ishonmagan. Demak, ishonchlilik mezonini ijtimohiy, shaxsiydir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak,



hadisning sahifligi uni sahif degan kishiga ko'radir. Lekin bu asos ham uning mantiqiy-tahliliy amali bilan bog'liqligida. Mutaxassislar tomonidan jiddiy muhokama qilinib, «bu raqam 4500-6300 atrofida ekani aytiladi. Hadis ilmi shu vaqtdan keyin davom etsa, bu 1 000 000 ni qanday qilib 6 000 ga tushiramiz, bu mavzu hozir bo'lishi kerak, deydi»⁴. G'arb sharqshunoslari fikricha, Imom Buxoriy va shunga o'xshash manbalardagi hadislarining yarmi yoki deyarli yarmi ishonchli materiallardir. Jey Horovits hadislariga ishonish mumkinligini aytib, hadislar Payg'ambar zamonidan 200-300 yil o'tib yozilgan, degan da'voning kulgili ekanligini ta'kidlaydi⁵.

Masalan, namozning rakat deb atalgan qismlari va necha marta o'qilishi haqida hadislarida ma'lum qilingan. Ammo bu tafsilotlar hadislarida farqlanadi, namozlar turli islom mazhablari tomonidan turlicha o'qiladi. Boshqa tomondan, qur'onshunoslarning fikriga ko'ra, agar Qur'oni karim biror narsa haqida sukut saqlasa, bu Xudo uni muhim deb bilmasligi uchundir.

Tasniflar mutlaq emas, balki tasnifni amalga oshiruvchi shaxsning bilim bazasi, taxminlari, ta'rifi va baholashlari kabi omillarga asoslanadi. Bir diniy hokimiyat mutavotir, sahif yoki ishonchli deb topilgan hadisni boshqa bir idoraga ko'ra zaif, uydirma yoki noto'g'ri deb ta'riflash mumkin.

Hadislar shariat va fiqh deb ta'riflangan islom hukmining asosini tashkil qiladi. Hadislar islomda yagona fiqh tizimi emas, parallel tizimlar asosidir. Bugungi kunda mavjud bo'lgan ilk islom tarixining ko'p qismi ham hadisga asoslanadi, garchi u birlamchi manbaning yo'qligi va ikkinchi darajali materialning ichki ziddiyatlari tufayli shubha ostiga olingan bo'lsa ham. Muhammad Payg'ambar hadislaridan (isnod va h.k.) islom huquqida hozir tushunilganidek foydalanish asta-sekin paydo bo'ladi. Yozef Shaxt, Ignas Goldsier va

⁴ Mustafa İslamoğlu - Sahif Hadisleri İnkâr Ediyor (HTML). YouTube. 23 Nisan 2015. 14 Aralık 2006 tarihinde kaynağından arşivlendi. Erişim tarihi: 30 Aralık 2015

⁵ Josef Horowitz, İslâmî Tarihçiliğin Doğuşu İlk Siyer/ Megâzî Eserleri ve Müellifleri (trc. Ramazan Özmen-Ramazan Altınay), Ankara Okulu Yayınları, Ankara 2019, 2.Baskı, 288 s.



Daniel V.Braun kabi olimlar fikriga ko'ra, «Islom fiqhining ilk maktablari Payg'ambar alayhissalomning sahobalari hukmlaridan, xalifalar hukmlaridan va «fikhshunoslar orasida umumiy qabul qilingan» amaliyotlardan foydalangan»⁶. Xalifa Umar o'lim to'shagida musulmonlarga Qur'on, qochqinlar, ansorlar va badaviylardan hidoyat so'rashni maslahat beradi.

Qur'on karimning yaratilishi haqida mo'tazila tomonidan ilgari surilgan qarash davlat ko'magi bilan islom olamini og'ir ahvolda qoldirdi. Ahmad ibn Hanbal konservativ ulamolar uchun sinov (fitna) bo'lgan bu voqea oldida katta qat'iyat va matonat bilan qarshilik ko'rsatdi, davlat o'z dastaklaridan voz kechgach, mo'tazila ishni boy berdi. Shunga qaramay, masala to'liq yopilmadi va Buxoriy islom olamida davom etayotgan bu bahslardan jabr chekdi.

Imom Muslimning yozishicha, Nishopurning mashhur muhaddisi Muhammad ibn Yahyo az-Zuxliy odamlarga Buxoriy bilan uchrashishni maslahat berdi, u kishining ko'zga ko'ringan ulamolari bilan shaxsan uchrashish uchun bordi, shogirdlariga kalom masalasida undan so'ramaslikni buyurdi. Bunga asos sifatida Buxoriy o'z fikriga zid fikr bildirsa, ular o'rtasida ziddiyat yuzaga kelishini, bu holda Xurosondagi barcha xorijiy, rofidiy, jahmiy va murjiy guruhlar ularga dushmanlik qilishini aytdi. Yana Muslimning so'zlariga ko'ra, Buxoriy turgan uy ziyoratchilar bilan to'lib-toshgan edi. «Shunda bir nodon kimsa: «Qur'onning lafzi maxluq - yaratilganmi yoki maxluq emasmi?», deya savol berib qoladi. Imom Buxoriy unga: «Bizning fe'llarimiz yaratilgan maxluq, lafzlarimiz esa fe'llarimizdandir», deya javob beradi»⁷. Qur'oni karim o'qishni maxluq deb bilganlar va bu da'voga rozi bo'lmaganlar o'zaro mushtlashib, tashrif buyurganlarni xonadon ahli olib

⁶ Joseph Schacht, *The Origins of Muhammadan Jurisprudence* (Oxford, 1950, repre. 1964) esp. 6-20 and 133-137); Ignaz Goldziher, *The Zahiris: Their Doctrine and their History*, trans and ed. Wolfgang Behn (Leiden, 1971), 20 ff...); Muslim Women's Quest for Justice: Gender, Law and Activism in India. Cambridge University Press. 2017. s. 31. ISBN 9781108225724. 15 Ekim 2021 tarihinde kaynağından arşivlendi. Erişim tarihi: 26 Şubat 2020.; J.A.C. Brown, *Misquoting Muhammad*, 2014: p.94

⁷ Imom Buxoriy ta'rifi/ G'oya muallifi: Sh.Umarov. - Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2018. - B. 232.



chiqib ketdi. U Qur'oni karimning yaratilganligi haqidagi qarashni qabul qilganligini va hadis o'quvchilarini ustozlari fikrini o'rganishga undaganligini da'vo qilgan. Bu borada Imom Buxoriy uning fikrini so'ragan kishiga javob berishni istamay, ularning qistovlariga shunday javob bergan: «Alloh taoloning kalomi Qur'oni karim maxluq emas. Lekin, bandalarning fe'llari maxluq va imtihon qilish bid'at»⁸, deb javob berdi.

Imom Buxoriy Nishopurdan keyin Marvga boradi. Shaharning taniqli muhaddislari va faqihi Ahmad ibn Sayyor o'z fikrlari to'g'ri ekanini, lekin omma tushunmaydigan mavzularga kirmasligini aytdi. Imom Buxoriy ham o'zi yaxshi bilgan masala haqida so'ralganda jim turish mumkin emasligini ta'kidlagan. Keyin Marvdan Buxoroga o'tdi. Imom Buxoriy o'zidan ilm olmoqchi bo'lgan har bir kishiga o'z bilganini bimalol bergan bo'lsa-da, davlat arboblardan uzoq bo'lib, ularning saroyiga borishni ilmni xor qilish deb bilgan, bu yo'lda har qanday qiyinchilikka bardosh berishga tayyor edi. Xuroson hokimi Xolid ibn Ahmad Zuhliy unga «al-jami'u's-Sahhih», «at-Tarihu'l-kabir»ni yubordi. U o'z asarlari va boshqa asarlarini undan tinglashni xohlayotganini bildirgach, bu iltimosni rad etdi. Ilmni boshqalarning oyog'iga xor qila olmasligini, hadis o'qigani masjidga, agar chindan xohlasa, uyiga kelishini ta'kidlab qo'yishini aytdi, agar xohlamasa, hadis o'qisin. Shu boisdan ham, alloma Buxoro hokimining faqat o'z farzandlarini o'qitish haqidagi iltimosini ma'lum kishilarga ilm ajrata olmasligini aytib, rad etadi. Shundan so'ng, o'zining yaqin hamkorlaridan Imom Buxoriyning ahli sunnat qarashlariga to'g'ri kelmaydigan g'oyalari borligini da'vo qilishdi.

Imom Buxoriy «Sahih» kitobida shunday bobni zikr qiladi: «Ilm so'z va amaldan oldindir»⁹. Unda: «Ulamolar ambiyolarning vorislaridir. Ular, ilmni meros qilib qoldirishgan. Kim uni olsa, to'liq nasiba olibdi»¹⁰ deyilgan.

⁸ Sahihi Buxoriy sharhi. Birinchi jild.- Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – B. 42.

⁹ Sahihi Buxoriy sharhi. Birinchi jild.- Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. – B. 42.

¹⁰ O'sha joyda.



Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hadisda olim ilmni osonlashtirishi, uni tushunarli tilda yetkazishi, ya'ni ilmda, albatta, yangilik yaratishi va ilm qoidalariga rioya qilishga qaratilgan. «Nabiy solollohu alayhi vasallam: «Osonlashtiringlar, qiyinlashtirmanglar, xushxabar beringlar, bezdirmanglar», dedilar»¹¹.

Ilmning fazilati haqida ko'plab dalillar mavjud. Alloh taolo ilmli bilan johilni ajratadi va aytadi: «Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'larmidi?!»¹² Albatta, bilgan bilan bilmagan bir bo'la olmaydi. Hatto ularning taklifnomalari ham bir xil bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun kimki o'z yaqinlarining holidan xavotirda bo'lsa, ularning adashishini istamasa, avvalo, ilm olsin, dinni to'g'ri yo'l bilan yetkazsin.

Qur'oni karimdagi oyatlar ikkiga bo'linadi: ma'nosi ochiq bo'lganlar (Muhkam oyatlar), ma'nosi aniq bo'lmagan yani tafsir va izohga muhtoj bo'lganlar (Mutashabih oyatlari). Hadis shariflar ham ikki qismga bo'linadi: muhkam va mutashabih. Ularni talqin qilish majburiyati islom dinida ijti hod institutining qaror topishiga olib keldi. Muhammad Payg'ambar va sahobalarning ijti hodlari islom ilmining asosidir. Haqiqiy islom ulamolari kalom ilmida va mutashabih oyat va hadislarni izohlashda faqat Muhammad Payg'ambar va sahobalarning ijti hodlariga ergashdilar, qadimgi faylasuflarning ularga to'g'ri kelmaydigan g'oyalarini inkor etib, shu tariqa Allohning dinini himoya qildilar. Islom ulamolari falsafani islom bilan aralashtirib, sahobalar yo'lidan adashgan 72 ta firqaning falsafalari haqida xabar berishgan.

Umuman olganda, hadis vahiya asoslangan fiqh manbasi sifatida Qur'oni karimga farqli pozitsiyasi va keltirgan hukmlariga ko'ra quyidagi shakllarda uchraydi:

1. Ba'zi hadislar Qur'oni karim keltirgan hukmlarni tasdiqlaydi. Ota-onaga itoatsizlikdan, yolg'on guvohlik berishdan, odam o'ldirishdan qaytaruvchi hadislar shunday.

¹¹ O'sha manba. – B.176.

¹² Oltin silsila.1 –juz.Sahihul Buxoriy – Toshkent: Hilol - nashr, 2016. – B. 175.



2. Ba'zi hadislar Qur'oni karim keltirgan hukmlarni izohlab, qo'shimcha ma'lumotlar beradi. Qur'oni karimda namoz o'qish, haj qilish, zakot berishga buyurilgan, ammo qanday bo'lishi aytilmagan. Bu ibodatlarni qanday qilish kerakligini hadislardan bilib olamiz.

3. Ba'zi hadislarda ham Qur'oni karim hech qachon to'xtalmagan masalalarda hukmlar keltirilgan. Hadisning mustaqil qonunchilik manbai ekanligini ko'rsatadigan bunday hadislar ko'plab misollar mumkin.

Xullas, bular islom dinida hadis (sunnat)ning muhim o'rnini ochib beradi. Din nuqtai nazaridan Qur'ondan so'ng kelgan hukm manbai sifatida hadislar munosib ahamiyat berilgan. Qur'oni karimda bu haqda quyidagi oyatlar zikr qilingan: «Ey Payg'ambar, ayt: Agar Allohni sevsangiz, menga ergashinglar, Alloh ham sizni yaxshi ko'radi va gunohlaringizni mag'firat qiladi»¹³; «Ey Payg'ambar, ayting: Allohga va Payg'ambarga itoat qiling. Agar yuz o'girsangiz, bilingki, Alloh kofirlarni sevmaydi»¹⁴; «Allohga va payg'ambarlarga itoat qilinglar, shoyadki rahm qilinursizlar»¹⁵; «Payg'ambar sizga nima olib kelsa, uni oling, nimadan qaytarsa, undan saqlaning».¹⁶

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sunna Qur'oni karimdan keyin qonuniy ravishda vujudga kelgan aqidaviy manba bo'lib, uning asosi inson mantiqiy va falsafiy metodlar tizimidan kelib chiqqan, kuchli tamoyil va amaliy hayot uyg'unligida tizimlashtirilgan qonunlar birlashmasidir. Ushbu tizim Islom va undan oldingi xalqlar hayotidagi muhim an'analarni sinkretlashtirgan holda umuminsoniy birlik, hamjihatlik va umuminsoniy madaniyat tamoyillari asosda birlashtirilgan.

¹³ Qur'oni karim. Oli Imron surasi. // O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alovuddin Mansur – Toshkent: Cho'lpon, 1991.

¹⁴ O'sha joyda.

¹⁵ O'sha joyda.

¹⁶ O'sha manba. Nashr surasi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi PF – 5416 sonli «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. – Toshkent, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 martdagi PQ-2855 sonli «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy – tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. – Toshkent, 2017.
3. Buyuk siymolar, allomalar: O'rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar va donishmandlar. K.1. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 100 b.
4. Imom Buxoriy ta'rifi /G'oya muallifi Sh.Umarov – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2018. – 320 b.
5. Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad» / Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid – Toshkent: Movarounnahr, 2006
6. Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad» (Odob-axloqqa oid hadislar.Saylanma)//Tuzuvchilar: Z.Islomov, A.Abdullayev – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2008.
7. Imom Buxoriy Al-Jome' as-Sahih. /Z.Ismoil tarjimasi. 1 -jild – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991.